QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANI HOKIMINING QARORI

181000 O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Yangi Mirishkor shaharchasi, tel: 652-18-58, 652-10-34, faks-652-14-65, 652-19-48

2023 - yil 17 - oktabr 194-4-63-Q/23 Mirishkor tuman hokimligi

Yo‘l transport hodisalarini oldini olish hamda tirbandliklarni bartaraf etish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y, 15-son, 197-modda), O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni 6, 25-moddalariga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda) asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Mirishkor tuman ichki ishlar bo‘limining 2023-yil 19-apreldagi 46/1485-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda yo‘l transport hodisalarini oldini olish hamda tirbandliklarni bartaraf etish maqsadida ilovaga muvofiq tegishli yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Tuman “Obodonlashtirish boshqarmasi” (I.Pinnayev)ga ilovaga muvofiq ichki yo‘llarga yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan ogohlantiruvchi, imtiyoz, taqiqlovchi, axborot-ishora belgilari hamda

svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlarining talablarini bilishlari, ularga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YXHG (Y.Hamroyev) tomonidan yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda transport vositalarining harakati kunlik nazorat qilib borilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Eshmurodov zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **F.G`ulomov**

Mirishkor tuman hokimining
2023-yil 17-oktabrdagi
194-4-63-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Yangi Mirishkor mahallasidagi ko‘chalarga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari DISLOKATSIYASI

T/R	Yo‘l belgilari nomi	Joylashtirish joyi	Soni (dona)
Mirishkor tumani			
1	Yangi Mirishkor shaharchasidan o‘tuvchi 4 K 325 b “Tuman markaziga kirish”avtomobil yo‘lining 3 kmda tuman hokimligi binosiga kirib borish **“Xizmat mashinalaridan tashqari kirish taqiqlanadi” “3,1” yo‘l belgisi o‘rnatish**	Yangi Mirishkor shaharchasi	2 dona
2	Yangi Mirishkor mahallasi O‘zbekiston ko‘chasidan o‘tuvchi (Yoshlar mehnat guzari savdo markazidan svetaforgacha bo‘lgan masofaga) **“To‘xtab turish taqiqlanadi” “3,27” yo‘l belgisi o‘rnatish**	Yangi Mirishkor shaharchasi	1 dona
3	Yangi Mirishkor mahallasi O‘zbekiston ko‘chasidan o‘tuvchi tuman Tibbiyot birlashmasiga borish yo‘lining birinchi chorraxasiga **“Yo‘l bering” 2,4 yo‘l belgisi o‘rnatish**	Yangi Mirishkor shaharchasi	2 dona